

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 44 142,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 7,3 % ga o'sdi.



YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 108,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,4 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

2

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish
sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	38 075,8	44 142,6	107,3
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	37 423,3	43 314,1	107,3
mahsulotlarga sof soliqlar	652,5	828,5	110,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	37 423,3	43 314,1	107,3
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 909,3	14 425,1	104,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 289,5	10 623,4	109,3
sanoat	6 093,0	6 776,9	108,8
qurilish	3 196,5	3 846,5	110,1
xizmatlar	15 224,5	18 265,6	108,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 895,4	5 810,1	108,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 357,9	3 185,2	118,9
boshqa xizmat tarmoqlari	7 971,2	9 270,3	105,2





YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

3

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 21 577,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,4 % ga yuqoridir.

**2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM hajmi**
(ming so'mda)



**2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

4

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34,5	33,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	24,8	24,5
sanoat	16,3	15,6
qurilish	8,5	8,9
xizmatlar	40,7	42,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,1	13,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,3	7,4
boshqa xizmat tarmoqlari	21,3	21,4



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 33,3 % ni, sanoat tarmog'i 15,6 % ni, qurilish 8,9 % ni va xizmatlar sohasi 42,2 % ni tashkil aildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)






YALPI HUDUDY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

6

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,4 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,3 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 2,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)






YALPI HUDUDY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

7


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 33,3 %), sanoatda – 108,8 % (15,6 %), qurilishda – 110,1 % (8,9 %), xizmatlar sohasida – 108,2 % ni (42,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,1 % (13,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,9 % (7,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,2 % dan (21,4 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 108,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 110,8 % va qurilishda – 109,3 % qayd etildi.

**Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 31 085,5 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 26 980,0 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 71,8 % ni (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida -72,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

